

ILMIY-OMMABOP MATNDA TERMINLAR TARJIMASINING O'ZIGA XOSLIKLARI

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich
Namangan davlat universiteti, tayanch doktorant
E mail: abdugaffor16@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada termin so'zi, unga tilshunoslar tomonidan berilgan izohlar, ilmiy-ommabop matnlarda uchrovchi terminlar, ularning matndagi vazifasi, terminlarni tarjima qilish jarayoni, bu jarayonda uchraydigan muammolar va bu muammolarni bartaraf etish va ularni tarjima tilida pragmatik ma'nosini aks ettira olish usullari kabi masalalar o'rganilgan. Terminlar tarjimalariga misollar keltirilgan va tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: terminlar, ilmiy-ommabop matnlar, kontekst, almashtirish, sinonimlar, muqobillar, izohlar, retsepiyentlar.

ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕВОДА ТЕРМИНОВ В НАУЧНО-ПОПУЛЯРНОМ ТЕКСТЕ

Таджибаев Музаффар Турамирзаевич
Наманганского государственного университет, докторант
Электронная почта: abdugaffor16@gmail.com

Аннотация: В данной статье изучаются слово термин, пояснения, данные ему учеными, термины, встречающиеся в научно-популярных текстах, их функция в тексте, процесс перевода терминов, проблемы, возникающие в этом процессе, и пути устранения этих проблем. и отразить их прагматический смысл на языке перевода. Представлены и проанализированы примеры перевода терминов.

Ключевые слова: термины, научно-популярные тексты, контекст, замена, синонимы, альтернативы, аннотации, реципиенты.

CHARACTERISTICS OF THE TRANSLATION OF TERMS IN POP SCIENCE TEXTS

Tadjibayev Muzaffar Turamirzayevich

Namangan State University, PhD student

E-mail: abdugaffor16@gmail.com

Abstract: *This article studies the word term, the explanations given to it by linguists, terms found in pop science and texts, their function in the text, the process of translating terms, problems arising in this process, and ways to eliminate these problems. and reflect their pragmatic meaning in the target language. Examples of translation of terms are presented and analyzed.*

Key words: *terms, pop science texts, context, replacement, synonyms, alternatives, annotations, recipients.*

Kirish

Hozirgi kunda yurtimiz kitob do'konlari peshtaxtalarini kuzatadigan bo'lsak nashr etilayotgan badiiy tarjima kitoblarning salmoqli qismi o'tmishda tarjima qilingani va qayta nashr etilayotgani, aksincha ilmiy-ommabop nashrlar ruknidagi kitoblarning deyarli hammasi yangi tarjima qilingan asarlar ekaniga guvoh bo'lish mumkin. Buning sababini ilmiy uslub turkumiga kiruvchi nashrlarning, shu jumladan ilmiy-ommabop asarlarning ma'nan tezroq eskirishiga bog'lash ham mumkin. Lekin masalaning asl sababi uzoq vaqt asosiy pragmatik vazifasi jamiyatning barcha qatlamlari orasida ilm-fan targ'iboti bo'lgan ilmiy-ommabop matnlarning tarjimasiga bo'lgan sust e'tibordir! Shu holatning o'ziyoq jamiyatdagi ilmiy-ommabop matnlar tarjimasi va ular ilmiy o'rganishga bo'lgan katta zaruratni ko'rsatib beradi.

Adabiyotlar tahlili

Ilmiy-ommabop matn leksikasining salmoqli qismini terminlar tashkil etadi. Ushbu maqolamizda ilmiy-ommabop matnlarda uchraydigan terminlar tarjimasining o'ziga xosliklari haqida so'z yuritamiz. So'zimiz avvalida termin atamasiga to'xtalib o'tsak. Hozirgi vaqtda ushbu so'z ko'p qirrali bo'lganligi sababli uning umumiy qabul qilingan definitsiyasi (ta'rifi) mavjud emas. Terminning bosh xossasini ta'riflash bo'yicha olimlarning turli yondashuvlari mavjud. Shunga qaramay, aksariyat olimlar termin bu ma'lum bir bilim yoki

faoliyat sohasi bilan bog'liq bo'lgan o'ziga xos yoki mavhum tushunchani og'zaki va yozma shaklda ifodalaydigan sintetik ifoda shakli ekanligiga qo'shiladilar.

A Madvaliyev tahriri ostida qayta nashr etilgan besh jildlik O'zbek tilining izohli lug'atida terminga quyidagicha ta'rif berilgan: “[lot. terminus – chek, chegara] fan, texnika kasb-hunarning biror sohasiga xos muayyan bir tushunchaning aniq va barqaror ifodasi bo'lgan so'z va so'z birikmasi; atama” [1].

L. L. Nelyubinning “Qisqacha tarjimashunoslik lug'ati”da terminga berilgan shunday ta'rif bergan: Termin – 1. Maxsus tushunchalarni aniq ifodalash va maxsus obyektlarni belgilash uchun yaratilgan (qabul qilingan, o'zlashgan va hok.) maxsus (ilmiy, texnik, harbiy va boshq.) tilga oid so'z yoki ibora. 2. Modulyatsiya qilib bo'lmaydigan so'z. 3. Fan, texnika, san'at, ijtimoiy hayot sohasidagi ma'lum bir tushunchaning aniq anglatuvchisi bo'lgan so'z yoki ibora. 4. Fan yoki texnikaning ma'lum bir sohasining boshqa tushunchalari bilan birgalikda bir semantik tizimni tashkil etuvchi ilmiy tushunchani bildirish sifatiga ega bo'lgan so'z. Tarjima uchun mo'ljallangan matnda termin tarjima birligi vazifasini bajarib, har doim alohida qarorni talab qiladi [2].

Kembrij lug'atida terminga “ma'lum bir mavzuga nisbatan ishlatiladigan so'z yoki ibora bo'lib, ko'pincha rasmiy yoki texnikaga oid tushunchani ifodalash uchun ishlatiladi”, deb ta'rif beradi [3].

Terminning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: ta'rifning mavjudligi, terminning aks ettirilgan tushunchaga muvofiqligi, ko'proq ma'lumot bilan to'yinganligi, noaniqlikka moyilligi, uslubiy betarafligi, ifoda kuchi yuqori emasligi va izchillik.

Ushbu asosiy xususiyatlardan tashqari, terminning qo'llanish xususiyatlariga ko'ra bir qator xossalari va talablarini ko'pgina olimlar, xususan, K. A. Mayakshin quyidagicha ajratib ko'rsatadi: amalga oshirish (umumiy qabul qilingan va tushunarli), variatsion barqarorlik, evfoniklik (evfoniylilik talabi) [4].

Bolgar tarjimashunoslari S. Vlaxov va S. Florinlar terminga bergan ta'riflari mana bunday: “termin yagona ma'noga ega, u hech qanday konnotativ ma'noga ega emas. Kontekstdan qat'iy nazar to'liq va mutlaq ekvivalenti bo'lgan termin

bilan tarjima qilinadi va shuning uchun mutaxassislarning ittifoq qilgan fikriga ko'ra u tarjimonga qiyinchilik tug'dirmaydigan leksik birliklardan biridir [5]."

Matnning davomida mualliflar nega unda terminlar ularning "Neperevodimie v perevode" ("Tarjima qilib bo'lmaydigan birliklar tarjimada", tarjima bizniki) kitobiga kiritilgani haqida izohlar berib o'tishadi. Birinchidan, faqat ideal holatda termin bir ma'noli, sinonim va konnotatsion ma'nolardan xoli bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, bunday ideal pozitsiya bilan ham uning to'liq tarjimasi haqida faqat ideal kontekstda, ilmiy uslub va uning taguslubiga xos matnlarda terminni termin bilan berish mumkin bo'lgan holatdagina gapirish mumkin degan fikrlarni keltirishadi [5].

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada ilmiy-ommabop matnlarda uchrovchi terminlar va ularni tarjimada berish usullari haqida fikr yuritiladi. Qiyoslash, solishtirish, tahlil kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar

Termin tarjimasi doim ham shunchaki asliyat tarjima tiliga o'girib qo'yishdek oson emas. Termin tarjimasi quyidagi hollarda oddiy va mashaqqatsiz bo'lishi mumkin. Birinchidan, muayyan termin faqat ilmiy adabiyotlardagina qo'llanilsa, ikkinchidan, termin har qanday tarjima tilida o'z ekvivalentiga ega bo'lsa. Lekin na terminning, na boshqa leksik birlikning bunday xususiyatlarga ega bo'lishi amri mahol [5].

So'nggi paytlarda terminologik elementlar (terminlar va ularning birikmalari) ilmiy adabiyotlar chegarasidan juda ham uzoqlab ketgan. Ikkinchi ilmiy-texnikaviy (axborot texnologiyalari) va uchinchi (sun'iy intellekt va nanotexnologiyalar) inqilob davrida terminlar nafaqat ilmiy-ommabop va ilmiy fantastik asarlarda, balki ommaviy axborot vositalari, publitsistik matnlar, nasr va hatto she'riyatda ham uchrashi oddiy holga aylandi. Aksar ommaviy axborot vositalari matnlari va badiiy asarlar inson faoliyatini tasvirlagani uchun muqarrar ravishda mehnat, ijod, ishlab chiqarish bilan bog'liq tildan foydalanadi. Bugungi kundagi ommaviy axborot vositalari, internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlarning giperfaolligi

natijasida hatto, o'ta ixtisoslashgan terminlar ham hodisalarning tavsifi orqali yozuvchilar tiliga ham, umumiste'molga ham kirib bordi. Natijada terminlar har qanday matn lug'ati tarkibining majburiy qismiga aylanib, zamonaviy adabiy tilning va so'zlashuv tilining holatini aks ettirmoqda.

Bolgar tarjimashunoslari S. Vloxov va S. Florinlar terminlar tarjimasiga doir o'zlarining quyidagi xulosalarni beradilar:

1. Terminlar tarjimasining asosiy tamoyili terminni termin orqali berishdir.
2. Sof ilmiy matndan farqli o'laroq, badiiy adabiyotda (shu jumladan ilmiy-ommabop matnda ham) terminlarni ajratib olish, ayniqsa, chet tilidagi matnda qiyinchilik tug'diradi. Ularni umumiste'moldagi so'zlar lug'atidan oldindan tanlab olish bilan ularni tarjima qilish usullarini tanlash bir-biriga bog'liqdir.
3. Agarda termin muayyan matnda terminologik ma'noga va ahamiyatli semantik mazmunga ega bo'lmasa, tegishli terminologik tizim bilan aloqadorligi mavjud bo'lmagan hollarda tarjimaning asosiy tamoyillaridan chetga chiqish mumkin.
4. Ilmiy matnni tarjima qilish jarayonida tarjima tilida terminga ekvivalent bo'lmasa u o'zlashtiriladi, yangi termin yaratiladi yoki umumiste'moldagi leksik birlikka terminologik ma'no yuklanadi. Boshqa turdagi matnlarda esa o'zgacha usullar afzal ko'riladi. Imkon boricha matnning terminologik ohangini yo'qotmaslikka harakat qilgan holda ma'no jihatidan yaqin, ba'zan esa ekvivalentdan uzoq termin bilan almashtirish, ma'lum bir tushunchani umumiy terminga almashtirish, turli darajadagi sinonimlarni qo'llash va hatto kontekstga singdirib yuborish kabi usullardan foydalaniladi.
5. Terminning ilmiy matnlar tarjimasida e'tiborga olinmaydigan tagmazmuni boshqa turdagi matnlarda ahamiyatli bo'lishi mumkin. Terminologik ma'no va ko'chma ma'noni uyg'unlashtira olinmaslik tarjimada g'alizliklar manbaiga aylanishi mumkin [5].

Tarjimashunos E. Ochilov o'zining "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" asarining "Tarjimada funksional uslublar" bobida shunday deydi: "Keng jamoatchilikka havola qilinadigan materiallar (gazetalar, ommabop jurnallarda

turdi ilmiy mavzularda bosiladigan maqolalar yoki keng omma oldida o‘qiladigan ma’ruzalar) ilmiy-ommabop uslubda bo‘ladi. Bu uslubda obrazlilik – tasvir ham bo‘ladi. Maxsus terminlar kam ishlatiladi. Ishlatilganda ham izohlar orqali tushuntiriladi. [6]”

Misollarga murojaat qilib, so‘zimizni asliyat tilida ham tarjima tilida ham ideal shaklga ega bo‘lgan so‘z bilan boshlaymiz. Bu borada Jeyms Klirning “Atom odatlar” kitobining ingliz tilidan o‘zbek tiliga Sarvinoz Qosimova tarjimasi va ingliz tilidan rus tiliga Yu. Chekmareva va K. Shashkova tarjimasidagi uchraydigan terminlarga murojaat qilamiz: What I offer you is a synthesis of the best ideas smart reorle figured out a long time ago as well as the most somrelling dissoveries ssientists have made resently.[7]

Ruscha tarjima: По сути, я предлагаю моим читателям синтез лучших идей, которые ученые сформулировали много лет назад, и самых важных открытий, сделанных за последние годы [8].

O‘zbekcha varianti: Men taklif qilayotganim donishmand kishilar allaqachon tushunib yetgan g‘oyalar va so‘nggi yillarda olimlar tomonidan qilingan eng hayajonli kashfiyotlar qorishmasidir [9].

Ushbu jumladagi “sintez” (yunoncha synthesis – birikish, qo‘shilish, biriktirish, qo‘shish) [1] termini ingliz tilidan rus tiliga o‘zlashgan shaklida tarjima qilingan va tarjima maqsadi va vazifalari, ifodalanishi kerak bo‘lgan ma’no to‘liq amalga oshgan. O‘zbekcha tarjimada bu termin “qorishma” shaklida berilib, terminning ruscha tarjimasi haqida aytgan fikrlarimizni o‘zbekcha shakliga ham yuz foiz tegishli deb hisoblashimiz mumkin. Shu o‘rinda tarjimon bu so‘zni rus hamkasbidek sintez deb berganida o‘zbek kitobxonining salmoqli qismiga tushunarsiz bo‘lgan bo‘lar edi. Negaki sintez termini o‘zbek tilida rus tilidagidek ommalashmagan va jamiyatning barcha qatlamlariga mansub shaxslar tomonidan istifoda etilmaydi.

Navbatdagi jumladagi terminni ikkilanmasdan neologizmlar qatoriga qo‘shishimiz mumkin: Behavioral ssientists like Skinner realized that if you offered the right reward or runishment, you sould get reorle to ast in a sertain way.

But while Skinner's model did an excellent job of explaining how external stimuli influenced our habits, it lacked a good explanation for how our thoughts, feelings, and beliefs impact our behavior [7].

Ruscha variant: Ученые-бихевиористы, в том числе Скиннер, понимали, что если предложить правильное вознаграждение или наказание, можно заставить человека вести себя определенным образом. Однако несмотря на то что модель Скиннера великолепно объясняла механизм воздействия внешних стимулов на поведение, ей не доставало убедительного объяснения того, как мысли, чувства и убеждения влияют на него [8].

O'zbekcha tarjima: Skinner singari bixeyviorist olimlar to'g'ri jazo yoki mukofot yordamida inson xulq-atvorini ma'lum yo'nalishga o'zgartirish mumkinligini ta'kidlaydi. Garchi Skinnerning modeli tashqi ta'sirlar odatlarga qanday ta'sir qilishini juda yaxshi tushuntirib bersa ham, u o'ylarimiz, tuyg'ularimiz va e'tiqodimiz xulq-atvorimizga ta'sir o'tkazishi haqida maqbul bir izoh bermaydi [9].

Parchadagi "behavioral scientist" birikmasi ruschaga uchenie-bixevioristi tarzida tarjima qilingan. O'zbekchaga transkripsiyalash-o'zlashtirish usuli bilan tarjima qilingan ushbu termin (inglizcha. behaviour xulq) — 19-a. ning oxiri — 20-a. dagi amerika psixologiyasining yetakchi oqimlaridan biridir. Bixeviorizm ta'limoti asosida odam va hayvon xulqida tashqi muhitdan bo'ladigan ta'sir, qo'zg'atuvchi (stimul)ga javoban yuzaga keladigan hatti-harakat va unga taalluqli nutqiy va hissiy javoblarning majmui yotadi. Bixeviorizm introspektiv psixologiya inqirozi sharoitida va hayvonlar psixikasini eksperimental tadqiq qilish ta'siri ostida yuzaga kelgan [10]. Ko'rinib turibdiki mazkur terminni bu usulda tarjima qilish hatto ma'lum fon bilimlarga ega o'quvchi uchun ham matnda berilayotgan ma'lumotni anglab olishda mashaqqat tug'dirishi tabiiy. Bu o'rinda transkripsiyalash-o'zlashtirish bilan cheklanmay terminning ma'nosi va kelib chiqishi haqida sahifa ostida yoki qavs ichida havola berib ketish ma'qul bo'lardi. Parchadagi yana bir termin "stimulus" terminining ko'plik shakli bo'lgan "stimuli"dir. Stimul (lotincha stimulus – hayvonlarni haydash uchun mo'ljallangan

uchli tayoq, biror ishga qiziqish tugʻdiradigan, ragʻbatlantiradigan, undaydigan narsa, omil) [13] soʻzini rus tarjimoni hech qiyinchiliksiz “stimul” ekvivalent termini bilan tarjima qilgan boʻlsa, oʻzbek tarjimoni negadir “external stimuli” soʻz birikmasini “tashqi taʼsirlar” shaklida bergan. Lekin tarjimon oldingi abzasda bu terminning izohini qavs ichida (qiziqtiruvchi omil) koʻrinishida berib oʻtgan. Kontekstda tashqi taʼsirlardan koʻra tashqi omillar yoki tashqi ragʻbatlantiruvchi omillar deyish terminning semantik kuchini yaxshiroq bergan boʻlardi.

Xulosalar

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, ilmiy-ommabop matnlar jamiyatning barcha qatlamlariga moʻljallanganini, ayniqsa, asosiy retsepiyentlar bolalar va oʻsmirlar ekanini hisobga olib murakkab, umumisteʼmolda kam ishlatiladigan terminlarni tarjimada berish masalasiga ehtiyotkorlik bilan yondashish zarur. Maqola avvalida aytib oʻtganimizdek qavs ichida, sahifa ostida izoh berish, tarjima tilidagi umumsoʻzlashuv leksikasida mashhur ekvivalentlari yoki maʼnodoshlari bilan almashtirish, maʼnoni kontekstga kiritib yuborish kabi koʻplab usullardan foydalanish maqsadga muvofiq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат миллий нашриёти. Тошкент. 4-жилд. 73-б. 3-жилд. 515-б.
2. Л. Л. Нелюбин. Толковый переводоведческий словарь. 3-изд., перераб. Флинта: Наука. 2003. С. 224
3. <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/term>
4. Мякшин К. А. К вопросу об основных признаках термина // Альманах современной науки и образования. № 8. – Тамбов, 2009. С. 112–114.
5. С. Влахов, С. Флорин. Непереводимые в переводе. Москва. Международные отношения. 1980. С. 273, 274.
6. Э. Очиллов. Таржима назарияси ва амалиёти. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент. 2012. 85-б.
7. James Clear. Atomic habits. AVERY an imprint of Penguin random house LLC. New York. 2018. P. 12, 13.

8. Клир Джеймс. Атомные привычки. СПб.: Питер. 2020. С. 18, 19.
9. Жеймс Клир. Атом одатлар. Тошкент. NIHOL. 2022. 13, 19-б.
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-b/bixeviorizm-uz/>